



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 6 (8)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

6

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Karabayev R.Z. Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va O‘zbekistonda rivojlanish yo‘nalishlari.....	8
Ubaydullayeva N.A. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes korxonalarining rivojlanish strategiyalari: nazariy yondashuvlar.....	11
Xatamov A.A. Raqamli transformatsiya asosida ixtisoslashtirilgan savdo majmualarida moliyaviy resurslarni boshqarishni takomillashtirish.....	15
Yokubjonova X.Yo. Co-marketing strategiyasining ekoturizmni brendlashiga integratsiyasi: metodologik yondashuv va amaliy natijalar.....	19
Yusupova M.B., Jamoliddinova (Usmonova) S.S. Ustama xarajatlarni tasniflash va uning mahsulot tannarxini shakllantirishdagi ahamiyati.....	24
Abdug‘ofurova O.M., Yusupova M.B. Ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni kalkulyatsiya qilish va uni takomillashtirish yo‘llari.....	27
Xojiboyev M.Sh. Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston nodavlat oliy ta’lim muassasalari boshqaruv hisobi tizimiga moslashtirish: nazariy asoslar va amaliy istiqbollari.....	31
Исраилова Д.К. Глобализация в условиях демографического кризиса: социально-экономические риски.....	38
Qurbonova X.I. Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash va inqirozga qarshi siyosati.....	43
Asqarov A.H. Oliy o‘quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni aniqlash me’zonlari (noiqtisodiy yo‘nalishi talabalar misolida).....	47
Yunusova S.A., Turg‘unboyev A.A. Eko-mehmonxona tushunchasi, turlari va asosiy xususiyatlari.....	51
Barnayev Z.Sh. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari raqobatbardoshligining mazmun-mohiyati va xususiyatlari.....	55
Bobokulov A.A. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining hududiy iqtisodiy integratsiyaga ta’siri.....	59
Рахимжонов Б.Б., Рахимжонов Б.Б. Инновационные процессы как фактор развития промышленных предприятий.....	63
Matmusayev M.O. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari.....	67
Raxmatjonova G.E. Ishlab chiqarish korxonalarining asosiy vositalari buxgalteriya hisobini xalqaro andozalar talablari bo‘yicha takomillashtirish.....	72
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligi faoliyatida raqamli integratsiya darajasini baholash.....	76
Xaitova M.K. Raqamli platformalar orqali biznes modellarini yangilash va kompaniyalar strategik imkoniyatlarini kengaytirish.....	81
Yo‘ldashev M., Sotvoldiyev U. Davlat byudjetini taqchilligi va uni kamaytirish mexanizmlari.....	85
Maribjonov B.I., Arabboyev J.S. Tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining 4-guruh xarajatlarining tahlili.....	88
Ro‘ziyev Sh.Sh. Hududiy iqtisodiy rivojlanishda mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy usullari.....	92
Nematov G‘.G‘., Sotvoldiyev U.K. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy asoslari va istiqbollari: deкупpling indeksi tahlili.....	95
Karimov D.M., Mustafayeva H. Xorij tajribasi asosida O‘zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish....	99
Ermatova S.I. Sanoat korxonalarida majburiyatlar tarkibi va moliyaviy barqarorlikning empirik tahlili (Andijon viloyati to‘qimachilik korxonalari misolida).....	104
Ermatov M.S. Sun’iy intellekt va mehnat bozorida raqamli inqilob: tahdidmi yoki kelajak imkoniyatimi?....	107
Azizova H.A. Raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyatini takomillashtirish yo‘llari.....	111
Юсупов А.С., Джангабаева Г.П. Международный рынок акций: содержание, виды и особенности..	114
Xusanova Z.R. Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning xususiyatlari.....	119
Abdulazizov A.A. Energetika tarmog‘i korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....	122
Norov A.E., Fazliddinov Sh.Sh., Erkinov X.X. Liderlik va motivatsiya o‘rtasidagi munosabatga ta’sir etuvchi omillar.....	126
Атаханова Ш.С., Мирхамидова Д.Н. Цифровая трансформация как инструмент достижения ESG-целей в нефтегазовой сфере Республики Узбекистан.....	131
Toxirov J.R. Mijozlarga yo‘naltirilgan raqamli marketing asosida savdo xizmatlarini modernizatsiya qilish.	136

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

Sulaymonova F., Ro‘zimov B. Online ta’lim xizmatlari bozorining kengayishi natijasida an’anaviy ta’lim sektorida yuz berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar.....	140
Zayaviddinova N.M. Hududda xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	143
Odilova M.A. Kimyo sanoatidagi korxonalar faoliyatida resurslardan samarali foydalanish.....	147
Axmedova D.N. Mintaqaviy raqamli tayyorlik indeksining hududiy iqtisodiy o‘lishga ta’siri.....	151
Sapayeva N.K. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida yashil transformatsiya va B2B raqamli marketing asosida barqaror rivojlanish modeli.....	155
Allayarov S. Startup financing mechanisms: a comparative analysis of angel investment, venture capital, bank lending, and state grants.....	158
Махмудов О.Х. Moliya tizimining boshqa iqtisodiy tizimlar bilan aloqadorligi.....	162
Ibragimova M.M. “Yashil iqtisodiyot” va “Yashil tadbirkorlik” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni va evolyusion transformatsiyasi.....	167
Olimjonov A. Korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish.....	171
Rakhimboeva B.D. Analysis of the economic situation of the development of export activities of small businesses in Uzbekistan.....	174
Raxmatova F.Y. To‘qimachilik korxonalarida aylanma iqtisodiyot modelini joriy etishning iqtisodiy mexanizmlari.....	178
Ergasheva A.F. Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash va bozorda pozitsiyalashning strategik yondashuvlari.....	181
Navruzova G.U. Theoretical models and institutional mechanisms, forms and structures of cooperation between education and manufacture.....	184
Djumayeva S.K. Yashil investitsiya muhitini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy ta’siri (O‘zbekiston hududlari misolida).....	188
Pardayev TN., Muqimov A.R. Boymirzayev K.M. Jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan tovarlardan bojxona to‘lovlarini undirishni takomillashtirish.....	193
Ибодуллоева З.С. Экономические стимулы внедрения водосберегающих технологий в аграрном секторе Узбекистана.....	199
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini yaxshilashda innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalar.....	203
Raxmatova S.S. Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	207
Umarova M.M. Foreign brand spillovers and export performance of smes in emerging economies: a panel data analysis.....	212
Karimova F.A. Ekoturizmni barqaror rivojlantirishning xorijiy tajribasi va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.....	217
Raxmanov B.I. Investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish.....	221
Ashurova G.N. Charm-poyabzal sanoati korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	225
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	228
Эгамназарова Г.Ш. Рақамли тенгсизлик: давлатлар ва тармоқлар ўртасидаги технологик узилишларни камайтириш йўллари.....	232
Mamanazarov M.A. Iqtisodiy o‘lishni rag‘batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning xorij tajribasi.....	236
Химматов А.Х. Йўл корхоналарини хусусийлаштиришнинг афзалликлари ва оқибатлари.....	241
Kambaraliyeva I.S. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining transformatsiyasi va raqamli ko‘nikmalarning ahamiyati.....	244
Muxiddinov T.Sh. Jizzax viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	248
Sayxdodjayeva N.I. Ijtimoiy va ekologik audit: barqaror rivojlanishni ta’minlashda zamonaviy nazorat mexanizmi.....	253
Fayzullayev J.N. Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	257
Tursunova N.X. «Xayot sug‘urtasining iqtisodiy mohiyati va uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta’minlashdagi roli».....	261
Abdishukurova G.M., Bozorboyev A.R. Sug‘urta kompaniyasi balansini “Risk tetraedri” modeli asosida baholash.....	266
Abdurasulova M.O. Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi asoschilari.....	270

Vaxidov A. Buxgalteriya hisobining tarkibiy tuzilishi - moliyaviy va boshqaruv hisobi.....	273
Turg‘unova T., Muftaydinov Q. Iqtisodiy zonalarda ekologik tadbirkorlikni investitsion va innovatsion qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribalari.....	277
Kurbanov F.U. Raqamli iqtisodiyotning moliyaviy xizmatlar bozoriga ta’siri.....	283
Umarov T.S. Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini statistik baholashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish.....	287
Rahimova N.A. Kichik biznes subyektlarida inson resurslarini boshqarish tizimidagi muammolari va ularni bartaraf etishda zamonaviy yondashuvlar.....	291
Yangiboyev U.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy menejment tizimini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari.....	295
Махкамова Н.С. Роль зеленых облигации в финансировании проектов устойчивого развития.....	299
To‘xtarova F.Y. Analysis of tourism insurance practices and their economic efficiency.....	304
Anvarov Sh.D. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsion muhitni rivojlantirishning institutsional va infratuzilmaviy omillari.....	308
Xalmirzayev O.A. Ko‘p obyektli savdolarida Vickrey-Clark-Groves mexanizmining samaradorligi tahlili....	313
Zaidov I.I. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida raqobat munosabatlarini boshqarish mexanizmlari.....	318
Rahimova N.A. Inson kapitalini boshqarishning tashkilot raqobatbardoshligiga ta’siri.....	321
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim kreditlarining iqtisodiy ahamiyati....	324
Bardiyev S.U. Mintaqada raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligini baholash: Xorazm viloyati misolida.....	328
Qulmatova S.S. Mahalla tizimida oziq-ovqat ta’minoti zanjirini IoT va sun’iy intellekt texnologiyalari asosida intellektual boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....	332
Aminov S.S. Mintaqada qurilish sohasidagi innovatsion rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar.....	336
Дадабоева М.М. Кичик бизнеснинг иқтисодий тармоқлари бўйича ривожланиш тенденциялари.....	340
Numonjonova N.A. Kichik biznesni rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish	344
Абдулазизов А.А. Гидроэнергетика саноати ва унда ресурс тежаш жараёнларининг хорижий тажрибалари.....	348
Muradov O.U. Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha xorijiy tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	352
Saidova M.J. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash yo‘nalishlari.....	356
Umirova G.Sh. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida rentabellik ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy samaradorlikni baholash metodikasini takomillashtirish.....	360
Narmanov U.A., Nazarov J.B., Tursunaxmadov X.Sh. Moliyaviy risklarning iqtisodiy ahamiyati va uni boshqarishning zarurligi: risk tushunchasi va uning turlari.....	365
Nosirov S.N. Barqaror moliyalashtirish global bozorlari: zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish muammolari.....	369
Farmanov J.Z., Sanetullaev A.E. Modeling of economic basis and forecast indicators of innovation transformation processes in agricultural entrepreneurship.....	373
Mirzataev S.M. Integration of digital and smart technologies in increasing the ecological resilience of the agricultural system.....	376
Kidirniyazov A.Sh. Development of artificial intelligence-based service monitoring systems for construction quality control.....	379
Абдуллаева Ш.Э. Халқаро индекслар асосида ижтимоий ҳимоя тизимини молиялаштириш.....	382
Mirjalolova M.M. Sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligini oshirishdagi o‘rni.....	389
Baytanov O‘.M. Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning tarmoq xususiyatlari.....	394
Умаров А.Т. Особенности развития социальной сферы в Узбекистане.....	400

5. Taklif etilayotgan kompleks model (texnologik + boshqaruv + resurslar + raqamlashtirish) O‘zbekiston sanoat korxonalarida yillik tannarxni 20–30% ga kamaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish uchun ilmiy asoslangan yo‘l xaritasini taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida"gi Qonuni. — <https://lex.uz/docs/2931253>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>
3. Shim J.K., Siegel J.G. Modern Cost Management and Analysis. — 3rd ed. — Barron’s Educational Series, 2019. — 448 b.
4. Kaplan R.S., Cooper R. Cost & Effect: Using Integrated Cost Systems to Drive Profitability and Performance. — Harvard Business School Press, 1998. — 357 b.
5. Eurostat. Manufacturing statistics — NACE Rev.2. — Luxembourg: Publications Office of the EU, 2022.
6. Horngren C.T., Datar S.M., Rajan M.V. Cost Accounting: A Managerial Emphasis. — 16th ed. — Pearson Education, 2021. — 953 b.
7. Liker J.K. The Toyota Way: 14 Management Principles from the World’s Greatest Manufacturer. — McGraw-Hill, 2004. — 330 b.
8. Hasanov B.A. Ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlarni boshqarish. — Toshkent: Fan, 2019. — 278 b.
9. Malikov T. Buxgalteriya hisobi va audit. — Toshkent: Moliya, 2020. — 412 b.
10. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi / DSQ ma’lumotlari (2022–2024 yy.).

UDK: 657.1:378.147

**XORIJIY TAJRIBALARNI O‘ZBEKISTON NODAVLAT OLIY TA’LIM
MUASSASALARI BOSHQARUV HISOBİ TIZİMİGA MOSLASHTIRISH: NAZARIY
ASOSLAR VA AMALIY ISTIQBOLLAR**

**АДАПТАЦИЯ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА К СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА
НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ УЗБЕКИСТАНА:
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ПЕРСПЕКТИВЫ**

**ADAPTATION OF FOREIGN EXPERIENCES TO THE MANAGEMENT ACCOUNTING
SYSTEM OF NON-STATE HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS OF
UZBEKISTAN: THEORETICAL BASIS AND PRACTICAL PROSPECTS**

Xojiboyev Muxiddin Shodimuxamedovich

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti,
“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası dotsenti, i.f.n.

Annotatsiya

Ushbu maqolada xorijiy mamlakatlar — AQSh, Kanada, Germaniya, Avstraliya, Janubiy Afrika va Rossiya — oliy ta’lim muassasalarida qo‘llanilayotgan boshqaruv hisobi tizimlarining asosiy modellarini O‘zbekiston nodavlat oliy ta’lim muassasalari (nodavlat OTM) amaliyotiga moslashtirish imkoniyatlari tahlil qilingan. O‘zbekiston nodavlat OTMlari uchun takomillashtirilgan boshqaruv hisobi modeli, moslashtirish tamoyillari va ilg‘or kalkulyatsiya usullarining (Target costing, Absorption costing, Direct costing) qiyosiy tahlili taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: boshqaruv hisobi, nodavlat oliy ta'lim muassasasi, mas'uliyat markazlari, ABC tizimi, BSC, KPI, strategik byudjetlashtirish, xarajatlar hisobi, moslashtirish.

В данной статье проанализированы возможности адаптации основных моделей систем управленческого учета, применяемых в высших учебных заведениях зарубежных стран — США, Канады, Германии, Австралии, Южной Африки и России — к практике негосударственных высших образовательных учреждений Узбекистана. Представлены усовершенствованная модель управленческого учета для негосударственных вузов Узбекистана, принципы адаптации, а также сравнительный анализ современных методов калькулирования затрат (Target costing, Absorption costing, Direct costing).

Ключевые слова: управленческий учет, негосударственное высшее образовательное учреждение, центры ответственности, система ABC, BSC, KPI, стратегическое бюджетирование, учет затрат, адаптация.

This article analyzes the possibilities of adapting the main models of management accounting systems used in higher education institutions of foreign countries the USA, Canada, Germany, Australia, South Africa, and Russia to the practice of non-state higher education institutions in Uzbekistan. An improved management accounting model for non-state higher education institutions of Uzbekistan, adaptation principles, and a comparative analysis of advanced costing methods (Target Costing, Absorption Costing, and Direct Costing) are presented.

Keywords: management accounting, non-state higher education institution, responsibility centers, ABC system, BSC, KPI, strategic budgeting, cost accounting, adaptation.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi so‘nggi yillarda jadal rivojlanib bormoqda. 2024 yil ma’lumotlariga ko‘ra, 214 ta oliy ta’lim muassasasi faoliyat yuritib, shulardan 67 tasi nodavlat bo‘lib, jami talabalar soni 1,35 mln nafardan oshgan [1]. Bu esa nodavlat oliy ta’lim muassasalarining ta’lim bozoridagi ulushi ortib borayotganini va raqobat muhitining kuchayganini ko‘rsatadi. Nodavlat OTMlar ulushi kengayib borayotgan bir sharoitda ushbu muassasalarni boshqarish samaradorligini oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va raqobatbardoshlikni mustahkamlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Amaldagi boshqaruv hisobi tizimi ko‘p hollarda an’anaviy buxgalteriya hisobiga yaqinlashgan bo‘lib, u strategik boshqaruv ehtiyojlarini to‘liq qondira olmayapti. Xarajatlarning umumlashtirilgan holda yuritilishi, mas’uliyat markazlari kesimida hisobning yetarli darajada shakllanmaganligi, samaradorlik ko‘rsatkichlarining tizimli qo‘llanilmasligi hamda axborot tizimlarining yetarlicha rivojlanmaganligi – bular milliy nodavlat OTMlarda boshqaruv hisobi modelini qayta ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatuvchi asosiy muammolar hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi xorijiy mamlakatlar oliy ta’lim muassasalarida samarali qo‘llanilayotgan boshqaruv hisobi modellarini tizimlashtirish, ularning O‘zbekiston nodavlat OTMlari amaliyotiga moslashtirish imkoniyatlarini ilmiy asosda tahlil qilish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

O‘zbekistonda boshqaruv hisobi sohasidagi tadqiqotlar Pardayev A.X. va Pardayeva Z.A. asarlari bilan boshlanib, ular boshqaruv hisobining nazariy asoslari, xarajatlarni tasniflash va kalkulyatsiya usullarini milliy sharoitga nisbatan tizimli ravishda yoritib bergan. Ushbu ilmiy maktab vakillari tomonidan byudjetlashtirish, transfer narxlarni shakllantirish va segmentlar hisobotlar masalalari milliy standartlar talablarini hisobga olgan holda tadqiq etilgan.

Nodavlat oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv va moliyaviy samaradorlik muammolari yuzasidan O‘zbekiston olimlari tomonidan ham bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, xususiy va nodavlat oliy ta’lim bozorini rivojlantirish, halol raqobatni shakllantirish hamda ta’lim sifatini oshirish masalalarida tadqiqotlar olib borilgan. Bu ishlar nodavlat OTMlarning institutsional xususiyatlarini, boshqaruv tuzilmasidagi kamchiliklarni va moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasini ilmiy jihatdan tahlil qilgan.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda Responsibility Center Budgeting (RCB) modeli AQSh va Kanada universitetlari misolida keng o‘rganilgan. Ushbu model bo‘yicha bo‘linmalar mustaqilligini markazlashgan boshqaruv bilan uyg‘unlashtirish masalasida ko‘plab empirik tadqiqotlar mavjud. Germaniya universitetlarida controlling tizimini joriy etish tajribasi, Avstraliya oliy ta’limida performance budgeting, shuningdek, Janubiy Afrika universitetlarida BSC va KPI asosida samaradorlikni baholash tizimlari xorijiy adabiyotlarda yetarlicha yoritilgan.

Biroq O‘zbekiston nodavlat OTMLari uchun xorijiy modellarni milliy muhitga moslashtirish masalasi ilmiy jihatdan yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ushbu bo‘shliqni to‘ldirish mazkur tadqiqotning asosiy ilmiy ahamiyatini tashkil etadi.

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanilgan: qiyosiy tahlil (xorijiy va milliy tajribalarni solishtirish), tizimli yondashuv (boshqaruv hisobi elementlarini yaxlit tizim sifatida ko‘rish), abstraksiya va umumlashtirish (ilmiy xulosalar chiqarish), miqdoriy modellash (Target costing, Absorption costing va Direct costing asosida hisob-kitoblar amalga oshirish). Axborot bazasi sifatida xalqaro va milliy ilmiy nashrlar, O‘zbekiston Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumotlari, shuningdek, xorijiy universitetlar tajribasiga oid empirik tadqiqotlar ishlatilgan.

1. Xorijiy boshqaruv hisobi modellarining tahlili

Xorijiy oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv hisobi tizimining rivojlanishi an’anaviy xarajatlar nazoratidan strategik boshqaruv vositasiga aylanish yo‘lini bosib o‘tgan. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda qo‘llanilayotgan asosiy modellar quyidagilardan iborat:

AQSh va Kanada universitetlarida Responsibility Center Budgeting (RCB) modeli keng qo‘llanilmoqda. Bu model fakultetlar, kafedralar va xizmat bo‘limlarini mustaqil moliyaviy javobgarlik markazlariga aylantiradi. Bo‘linmalar o‘z daromadlarini mustaqil boshqaradi va umum-universitet xarajatlariga hissa qo‘shadi. Muvozanat maqsadida markaziy boshqaruv va bo‘linmalar mustaqilligi o‘rtasida optimal nisbat saqlanadi.

Germaniya universitetlarida controlling tizimi moliyaviy, akademik va operatsion ma’lumotlarni yagona axborot tizimida integratsiyalashga qaratilgan. ERP va BI tizimlari yordamida boshqaruv hisobi ma’lumotlari real vaqt rejimida tahlil qilinadi, bu esa boshqaruv qarorlarining tezkorligi va aniqligini sezilarli darajada oshiradi.

Avstraliya oliy ta’limida strategik va natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish tizimi keng qo‘llanilmoqda. Byudjetlashtirishni strategik maqsadlar bilan bog‘lash, KPI asosida moliyalashtirishni joriy etish va benchmarking orqali faoliyatni baholash moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Janubiy Afrika universitetlarida BSC (Balanced Scorecard) va KPI tizimlariga asoslangan kompleks baholash modeli joriy etilgan. Moliyaviy va nomoliyaviy ko‘rsatkichlarni integratsiyalash ta’lim sifati, ilmiy faoliyat va moliyaviy natijadorlikni birgalikda boshqarish imkonini beradi.

Yevropa mamlakatlari oliy ta’lim muassasalarida faoliyatga asoslangan xarajatlar hisobi (ABC – Activity Based Costing) tizimi keng qo‘llanilmoqda. Bu usul ta’lim dasturlari va xizmatlar bo‘yicha aniq tannarxni hisoblash hamda ortiqcha xarajatlarni aniqlash imkonini beradi.

1-jadval

Xorijiy boshqaruv hisobi modellarining qiyosiy tahlili [2]

Mamlakat/Model	Asosiy yondashuv	Afzalliklari	O‘zbekistonga moslik
AQSh/Kanada (RCB)	Mas’uliyat markazlari	Moliyaviy javobgarlik, bo‘linmalar mustaqilligi	Yuqori
Germaniya (Controlling)	ERP/BI integratsiyasi	Real vaqt tahlili, axborot sifati	O‘rta-yuqori
Avstraliya	Strategik byudjetlashtirish	KPI bilan bog‘liqlik, benchmarking	Yuqori
Janubiy Afrika	BSC va KPI tizimi	Kompleks baholash, moliyaviy + nomoliyaviy	Yuqori
Yevropa (ABC)	Faoliyatga asoslangan hisob	Tannarx aniqligi, xarajat optimallasuvi	O‘rta

Mamlakat/Model	Asosiy yondashuv	Afzalliklari	O‘zbekistonga moslik
Rossiya	Normativ boshqaruv hisobi	Nazorat va intizom	Yuqori

2. Milliy OTMlarda amaldagi muammolar

O‘zbekiston nodavlat OTMlarida mavjud boshqaruv hisobi tizimini tahlil qilish asosida quyidagi tizimli muammolar aniqlandi. Birinchidan, xarajatlar ko‘pincha umumlashtirilgan holda yuritiladi va ta’lim dasturlari, fakultetlar yoki xizmat turlari kesimida segmentlashtirilmaydi. Ikkinchidan, mas’uliyat markazlari tizimi yetarlicha shakllanmagan, natijada bo‘linmalar darajasida moliyaviy javobgarlik sust. Uchinchidan, samaradorlik ko‘rsatkichlari tizimli qo‘llanilmaydi: boshqaruv qarorlari ko‘pincha to‘liq analitik ma’lumotlarsiz qabul qilinadi. To‘rtinchidan, axborot tizimlari yetarlicha rivojlanmagan, ma’lumotlar oqimi avtomatlashtirilmagan.

Yuqoridagi muammolar nodavlat OTMlarning strategik rivojlanishiga to‘siq bo‘lib, raqobat kuchayib borayotgan sharoitda ularning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ta’lim xizmatlari bozorida nodavlat OTMlar soni o‘shib borayotgan bir davrda boshqaruv hisobi tizimini takomillashtirish strategik zaruriyatga aylanmoqda.

3. Moslashtirish tamoyillari va modeli

Xorijiy modellarni milliy sharoitga joriy etishda quyidagi tamoyillarga amal qilish zarur deb hisoblaymiz. Normativ muvofiqlik tamoyiliga ko‘ra, xorijiy boshqaruv hisobi elementlari milliy buxgalteriya hisobi standartlari, soliq qonunchiligi va ta’lim sohasidagi me’yoriy hujjatlar bilan muvofiqlashtirilishi shart. Bu tamoyil boshqaruv axborotining qonuniyligini va ishonchliligini ta’minlaydi.

Institutsional moslashuv tamoyili O‘zbekiston oliy ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlari davlat tomonidan tartibga solish darajasi, boshqaruv strukturalari va moliyalashtirish mexanizmlari bilan uyg‘unlikni ta’minlashni nazarda tutadi. Bosqichma-bosqich joriy etish tamoyili esa pilot loyihalar asosida sinovdan o‘tkazib, keyinchalik kengaytirish strategiyasini ko‘zda tutadi. Bu yondashuv risklarni kamaytiradi va tizimning samaradorligini oldindan baholash imkonini beradi.

Integratsiya tamoyili boshqaruv hisobi tizimini mavjud axborot tizimlari, moliyaviy hisob va boshqaruv jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish zarurligini belgilaydi. Moslashuvchanlik tamoyili xorijiy modellarni milliy sharoitlarga mos ravishda modifikatsiya qilishni nazarda tutadi. Samaradorlikka yo‘naltirilganlik tamoyili esa KPI va BSC ko‘rsatkichlari asosida resurslardan foydalanishni baholash va optimallashtirish mexanizmini yaratishga qaratilgan.

2-jadval

Xorijiy boshqaruv hisobi tizimlarini moslashtirish tamoyillari [3]

№	Tamoyil	Mazmuni	Kutilayotgan natija
1	Normativ muvofiqlik	Qonunchilikka moslik	Axborot ishonchliligi
2	Institutsional moslashuv	Mavjud tizimga integratsiya	Barqarorlik
3	Bosqichma-bosqich joriy etish	Pilot yondashuv	Risk kamayadi
4	Integratsiya	Axborot tizimlari bilan bog‘lash	Samaradorlik oshadi
5	Moslashuvchanlik	Modifikatsiya qilish imkoniyati	Milliy muhitga moslik
6	Samaradorlikka yo‘naltirilganlik	KPI, BSC qo‘llash	Natijadorlik
7	Kadrlar rivoji	Mutaxassislar malakasini oshirish	Professionalizm
8	Shaffoflik va hisobdorlik	Ochiqlik prinsipi	Ishonch va jozibadorlik

4. Ilg‘or kalkulyatsiya usullarining qiyosiy tahlili

Nodavlat OTMlarda boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish ko‘p jihatdan xarajatlarni to‘g‘ri hisoblash tizimiga bog‘liqdir. Uchta asosiy kalkulyatsiya usulini Absorption costing, Direct costing va Target costingni integratsiyalashgan holda qo‘llash optimal natija beradi deb hisoblaymiz.

Absorption costing (to‘liq tannarx usuli) barcha o‘zgaruvchan va doimiy xarajatlar xizmat tannarxiga kiritilishini nazarda tutadi. Moliyaviy hisobotlar va kontrakt narxlarini asoslashda muhim

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” jurnali 6-son 2026 yil

ahamiyatga ega. Muassasa miqyosida (2 000 talaba, umumiy xarajatlar 17 mlrd so‘m) bir talaba uchun to‘liq tannarx 8 500 000 so‘mni tashkil etadi.

3-jadval

Nodavlat oliy ta‘lim muassasasida Target costing, Absorption costing va Direct costing usullari bo‘yicha umumlashtirilgan hisob-kitob [4]

Ko‘rsatkichlar	Boshlang‘ich ma‘lumot / formula	Absorption costing	Direct costing	Target costing
Talabalar soni, nafar		2 000	2 000	2 000
O‘rtacha kontrakt summasi, ming so‘m		10 000	10 000	10 000
Umumiy tushum, ming so‘m	Talabalar soni × kontrakt summasi	20 000 000	20 000 000	20 000 000
O‘zgaruvchan xarajatlar, ming so‘m		11 000 000	11 000 000	11 000 000
Doimiy xarajatlar, ming so‘m		6 000 000	6 000 000	6 000 000
Umumiy xarajatlar, ming so‘m	O‘zgaruvchan + doimiy xarajatlar	17 000 000	17 000 000	17 000 000
Bir talaba uchun tannarx, ming so‘m	Usulga ko‘ra hisoblanadi	8 500	5 500	7 500
Hisoblash tartibi (mln so‘m)		17 000 / 2 000	11 000 / 2 000	10 000 000 – 2,5
Bir talaba bo‘yicha foyda / marginal daromad, so‘m	Kontrakt — tannarx	1 500 000	4 500 000	2 500 000
Umumiy foyda / marginal daromad, so‘m	Bir talaba ko‘rsatkichi × 2 000	3 000 000	9 000 000	5 000 000
Doimiy xarajatlar chegirilgandan keyingi yakuniy foyda, ming so‘m		3 000 000	3 000 000	maqsadli foyda darajasi
Maqsadli foyda normasi, %		-	-	25
Bir talaba bo‘yicha maqsadli foyda, ming so‘m	10 000 × 25%	-	-	2 500
Amaldagi to‘liq tannarx, so‘m		8 500 000	-	8 500 000
Ortiqcha xarajat, bir talaba uchun, so‘m	Amaldagi tannarx — maqsadli tannarx	-	-	1 000 000
Ortiqcha xarajat, umumiy, ming so‘m	1 000 × 2 000	-	-	2 000 000

Direct costing (o‘zgaruvchan xarajatlar usuli) faqat o‘zgaruvchan xarajatlarni (11 mlrd so‘m) xizmat tannarxiga kiritadi. Bir talabaga to‘g‘ri keladigan o‘zgaruvchan tannarx 5 500 000 so‘m bo‘lib, bu operativ boshqaruv qarorlarini qabul qilishda va yangi ta‘lim dasturlarini ochish yoki yopish bo‘yicha qarorlar asoslashda muhim instrument hisoblanadi.

Target costing (maqsadli tannarx usuli) bozor narxi va kutilayotgan foydadan kelib chiqib, ruxsat etilgan xarajatlar chegarasini belgilaydi. Masalan, o‘rtacha kontrakt narxi 10 000 000 so‘m va maqsadli foyda normasi 25% bo‘lgan taqdirda maqsadli tannarx 7 500 000 so‘mni tashkil etadi. Amaldagi tannarx (8 500 000 so‘m) bilan taqqoslaganda, har bir talaba bo‘yicha 1 000 000 so‘m, muassasa bo‘yicha esa jami 2 000 000 000 so‘m ortiqcha xarajat mavjudligi aniqlanadi. Bu esa xarajatlarni optimallashtirish bo‘yicha aniq boshqaruv choralari ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

4-jadval

Kalkulyatsiya usullarining qiyosiy tahlili [5] (2 000 talaba, kontrakt = 10 mln so‘m)

Ko‘rsatkich	Absorption costing	Direct costing	Target costing
Talabalar soni	2 000	2 000	2 000
O‘rtacha kontrakt, so‘m	10 000 000	10 000 000	10 000 000
Umumiy tushum, ming so‘m	20 000 000	20 000 000	20 000 000
O‘zgaruvchan xarajatlar, ming so‘m	11 000 000	11 000 000	11 000 000
Doimiy xarajatlar, ming so‘m	6 000 000	6 000 000	6 000 000
Bir talaba uchun tannarx, ming so‘m	8 500	5 500	7 500 (maqsad)
Ortiqcha xarajat (umumiy), ming so‘m	—	—	2 000 000
Yakuniy foyda, ming so‘m	3 000 000	3 000 000	maqsad: 5 000 000

Yuqoridagi tahlil ko‘rsatadiki, uchala usul bir-birini inkor etmaydi: ular turli boshqaruv vazifalarini hal etishda o‘zaro to‘ldiruvchi xarakterga ega. Strategik rejalashtirishda Target costing, moliyaviy hisobotda Absorption costing, operativ boshqaruvda esa Direct costing usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

1. Takomillashtirilgan boshqaruv hisobi modeli

Tadqiqot natijalari asosida O‘zbekiston nodavlat OTMlari uchun integratsiyalashgan boshqaruv hisobi modeli taklif etiladi. Ushbu model quyidagi tarkibiy elementlarni o‘z ichiga oladi:

1. Mas’uliyat markazlari tizimi: fakultetlar, kafedralar, ta’lim dasturlari, qo‘shimcha ta’lim markazlari va xizmat bo‘limlari daromad, xarajat, foyda va investitsiya markazlari sifatida ajratiladi.

2. Zamonaviy kalkulyatsiya tizimi: ABC, Target costing va Direct costing usullarini integratsiyalashgan holda qo‘llash orqali ta’lim xizmatlari tannarxini aniq hisoblash.

3. KPI va BSC ko‘rsatkichlari tizimi: moliyaviy va nomoliyaviy indikatorlarni integratsiyalash orqali universitet faoliyatini har tomonlama baholash.

4. Strategik byudjetlashtirish: rejalashtirish–ijro–nazorat–tahlil sikliga asoslangan uzluksiz boshqaruv jarayoni.

5. Axborot texnologiyalari integratsiyasi: ERP va BI tizimlarini joriy etish orqali ma’lumotlarni real vaqt rejimida yig‘ish, qayta ishlash va tahlil qilish.

6. Ichki moliyaviy nazorat va audit: xarajatlar smetasi ijrosi, daromadlar shakllanishi va risklarni monitoring qilishning integratsiyalashgan tizimi.

5-jadval

Nodavlat OTMlar uchun takomillashtirilgan boshqaruv hisobi modelining elementlari [6]

Element	Mazmuni	Xorijiy asos	Kutilayotgan natija
Mas’uliyat markazlari	Fakultet va bo‘limlar kesimida hisob	AQSh, Kanada (RCB)	Javobgarlik oshadi
ABC tizimi	Faoliyatga asoslangan xarajatlar	Yevropa modeli	Tannarx aniqligi
Target costing	Maqsadli tannarx boshqaruvi	Yaponiya, Yevropa	Xarajat optimallasadi
KPI va BSC	Samaradorlikni kompleks baholash	Janubiy Afrika	Qaror sifati oshadi
ERP va BI	Raqamli axborot tizimi	Germaniya	Tezkorlik va aniqlik

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” jurnali 6-son 2026 yil

Element	Mazmuni	Xorijiy asos	Kutilayotgan natija
Strategik byudjetlashtirish	Maqsadlar bilan bog‘liq reja	Avstraliya, Malta	Rivojlanish ta‘minlanadi
Ichki audit	Moliyaviy nazorat integratsiyasi	Rossiya modeli	Shaffoflik oshadi

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy xulosalar shakllandi. Birinchidan, xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida boshqaruv hisobi tizimining evolyutsiyasi an‘anaviy xarajatlar nazoratidan strategik boshqaruv vositasiga aylanish yo‘lini bosib o‘tgani aniqlandi. Ushbu transformatsiya xarajatlar hisobi → byudjet nazorati → mas‘uliyat markazlari → faoliyatga asoslangan hisob → strategik samaradorlik hisobi ketma-ketligida sodir bo‘lgan.

Ikkinchidan, O‘zbekiston nodavlat OTMlari uchun xorijiy modellarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish emas, balki milliy normativ-huquqiy baza, institutsional muhit, moliyalashtirish manbalari va axborot infratuzilmasi bilan muvofiqlashtirilgan holda moslashtirish zarurligi asoslab ko‘rsatildi. Sakkiz tamoyildan iborat moslashtirish konsepsiyasi taklif etildi.

Uchinchidan, kalkulyatsiya usullarini qiyosiy tahlil qilish natijasida Absorption costing, Direct costing va Target costingni integratsiyalashtirish holda qo‘llash eng optimal model ekanligi asoslandi. Target costing yondashuvi asosida o‘tkazilgan miqdoriy tahlil muassasada 2 mlrd so‘mlik ortiqcha xarajat mavjudligini va xarajatlarni optimallashtirish imkoniyatlari borligini ko‘rsatdi.

To‘rtinchidan, mas‘uliyat markazlari, ABC, KPI va BSC, controlling, strategik byudjetlashtirish hamda axborot texnologiyalarini birlashtiruvchi takomillashtirilgan boshqaruv hisobi modeli ishlab chiqildi. Ushbu modelni bosqichma-bosqich joriy etish orqali nodavlat OTMlarda moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash, resurslardan samarali foydalanish va boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash imkoniyati yaratiladi.

Kelgusida tadqiqotni chuqurlashtirish yo‘nalishlari sifatida: alohida nodavlat OTMlarda pilot loyihalar asosida taklif etilgan modelni aprotatsiyadan o‘tkazish, boshqaruv axborot tizimlarini raqamlashtirish texnologiyalarini tanlash mezonlarini ishlab chiqish hamda KPI ko‘rsatkichlari tizimini O‘zbekiston nodavlat OTMlari uchun moslashtirib standartlashtirish masalalari belgilab qo‘yilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. – Toshkent, 2022.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi ““O‘zbekiston—2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni. – Toshkent, 2023
4. Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. Boshqaruv hisobi. – Toshkent: TSUE nashriyoti, 2024. – 390 b.
5. Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. O‘zbekistondagi oliygohlar va ulardagi talabalar soni. – Toshkent, 2024. URL: <https://kun.uz/news/2024/02/14/...>
6. Nodavlat oliy ta‘lim muassasalarida o‘quv va tashkiliy boshqaruv faoliyatini tashkillashtirish muammolari // Academia.edu, 2024.
7. Kaplan R.S., Norton D.P. The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. – Harvard Business School Press, 1996. – 322 p.
8. Whalen B.L. Responsibility Centre Budgeting: An Approach to Decentralized Management for Institutions of Higher Education. – Indiana University Press, 1991.
9. Cooper R., Kaplan R.S. Activity-Based Systems: Measuring the Costs of Resource Usage // Accounting Horizons. – 1992. – Vol. 6(3). – P. 1–13.
10. Monden Y. Target Costing and Kaizen Costing in Japanese Automobile Companies // Journal of Management Accounting Research. – 1992. – Vol. 4. – P. 16–34.
11. Drury C. Management Accounting for Business. – 6th ed. – Cengage Learning, 2018. – 560 p.
12. Mirzaev A. Oliy ta‘lim muassasalarida xarajatlarni boshqarish metodikasi // Iqtisodiyot va Innovatsion Texnologiyalar. – 2021. – №3. – B. 45–58.

13. Tursunov B. Nodavlat ta’lim muassasalarida moliyaviy barqarorlikni ta’minlash muammolari // O‘zbekiston Moliya Jurnali. – 2022. – №4. – B. 112–126.
14. Rajabova G.U. Improving the Performance Management of the Higher Education System in the Republic of Uzbekistan // Open Access Repository. – 2022. – 8(11). – P. 81–86.
15. Ashurova M.K., Davlayorova A. Ways to Evaluate the Experience of Implementing KPI in Foreign Universities // Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – 2023.

УДК: 338.24

**ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА ДЕМОГРАФИК ЖАРАЁНЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ
ХАВФСИЗЛИККА ТАЪСИРИ**

**ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ НА ЭКОНОМИЧЕСКУЮ
БЕЗОПАСНОСТЬ В КОНТЕКСТЕ ГЛОБОЛИЗАЦИИ**

**THE IMPACT OF DEMOGRAPHIC PROCESSES ON ECONOMIC SECURITY IN THE
CONTEXT OF GLOBALIZATION**

Исраилова Дилфуза Каримовна

“University of economics and pedagogy” НОТМ

Иқтисодиёт кафедраси профессори, иқтисодиёт фанлари доктори

Аннотация

Ушбу мақолада Ўзбекистон Республикасидаги замонавий демографик жараёнлар ва уларнинг миллий иқтисодиёт барқарорлигига таъсири таҳлил қилинган. Бугунги кунда мамлакатимизда аҳоли сонининг тез суръатлар билан ўсиши, ёшлар сонининг ортиши нафакат меҳнат бозорига босимни оширишига, балки иқтисодий юксалиш учун улкан имкониятларни ҳам юзага келтирмоқда. Мақолада ёшларни самарали бандлигини таъминлаш, инсон капитали сифатини ошириш ва демографик дивиденддан иқтисодий фойда олиш механизмлари ўрганилган.

Калит сўзлар: демографик хавфсизлик, демографик босим, демографик дивиденд, аҳоли ўсиши, меҳнат бозори, ижтимоий сиёсат, инсон капитали, бандлик стратегияси, рақамли трансформация, миграция.

В данной статье анализируются современные демографические процессы в Республике Узбекистан и их влияние на стабильность национальной экономики. Сегодня стремительный рост населения в нашей стране и увеличения числа пожилых людей не только усиливают давление на рынок труда, но и создают большие возможности для экономического роста. В статье рассматриваются механизмы обеспечения продуктивной занятости молодёжи, повышения качества человеческого капитала и получения экономических выгод от демографического дивиденда.

Ключевые слова: демографическая безопасность, демографическое давление, демографический дивиденд, рост населения, рынок труда, социальная политика, человеческий капитал, стратегия занятости, цифровая трансформация, миграция.

This article analyzes modern demographic processes in the Republic of Uzbekistan and their impact on the stability of the national economy. Today, the rapid population growth in our country and the increasing number of elderly people not only increase pressure on the labor market, but also create great opportunities for economic growth. The article examines mechanisms for ensuring productive employment of young people, improving the quality of human capital and obtaining economic benefits from the demographic dividend.